

«KELISHILDI»
O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
direktori o'rinbosari


U.A. Mavlyanov

2023 yil « 11 » yanvar

«KELISHILDI»
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vaziri o'rinbosari


A.I. Ibratov

2023 yil « 11 » yanvar

**O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamkorligida
2023- yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
DASTURI**

No	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Korrupsiyaga oid jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni Agentlikka taqdim qilib borish.	«Elektron jinoiy-huquqiy statistika» yagona axborot tizimi doirasida davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar haqidagi statistik ma'lumot va ro'yxatlarni Agentlikka yuborish.	Har oyning 10 sanasi	Ichki ishlar vazirligi (HSvatHMMV) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Tizimli tahlil bo'limi)
2.	Korrupsion jinoyatlarini sodir etganligi uchun sudlanib, jazoni jiro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan uchrashuvlar tashkil etib, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni ta'silotlari va oqibatlari bo'yicha subbatlar o'tkazib, OAVlarida yoritish orqali bu kabi jinoyatlarni oldini olish.	Korrupsion jinoyatlar uchun sudlangan (aynan pora olish, pora berish hamda pora olish-bershida ishtirokchilik qilgan) shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida subbatlar tashkillashtirib, ushbu toifadagi jinoyatlarini oldini olish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish.	Yil davomida	Ichki ishlar vazirligi (JIED, JvaOAVBAB) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Matbuot xizmati)
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashishda chet el tajribasini o'rganish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga bevosita mas'ul bo'lgan (Bosh prokuratura, IIV, DXX) xodimlar bilan	2023-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Xalqaro hamkorlik

		hamkorlikda xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.		boshqarmasi) Ichki ishlar vazirligi (Xalqaro hamkorlik boshqarmasi)
4.	Agentlik xodimlari ishtirokida ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi munosabatlarni muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul bo'lgan rahbar va xodimlar malakasini oshirish.	1) Tarkibiy tuzilmalar hamda hududiy ichki ishlar organlarida tuzilgan "Ishchi guruh" a'zolarini bilim ko'nikmalarini oshirish, korrupsiyaga oid normativ huquqiy hujjatlar talablarini hayotga tatbiq etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda vazirlik Akademiyasida qisqa muddatli o'quv seminar mashg'ulotini o'tkazish; 2) IIV Akademiyasi kursantlari, IIV Malaka oshirish instituti tinglovchilari, IIV Akademik litseylar hamda Ixtisoslashtirilgan maktab internati o'quvchilari uchun Agentlik xodimlari tomonidan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish.	2023-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (kompleks-nazorat boshqarmasi) Ichki ishlar vazirligi (KTB, Akademiya, MOI, Akademik litseylar, Maktab internat)
5.	Hamkorlikda amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida hamda tomonlarning rasmiy veb-saytlarida keng yoritilishini ta'minlash	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabr kuni 829-sonli qarori mazmun-mohiyati yuzasidan hamkorlikda videoreklamlar tayyorlash va aholi o'rtasida keng targ'ib qilish. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tayyorlangan axborotlarni o'zaro almashish.	2023-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Matbuot xizmati) Ichki ishlar vazirligi (JvaOAVBAB)
6.	Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusiga oid video, bosma va elektron ko'rinishdagi materiallarni tayyorlash hamda rasmiy veb-saytlarga axborot va ma'lumotlarni joylashtirib borish.	1) Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni rasmiy veb-saytdagi "Korrupsiyaga qarshi kurash" rukni orqali yoritish va ma'lumotlarni yangilab borish; Shuningdek, korrupsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar haqida to'liq ma'lumotlarni kiritib, yangilab borish, bunda:	2023-yil har oyda	Ichki ishlar vazirligi (JvaOAVBAB, Birlashgan tahtiriyat) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Matbuot xizmati)

		a) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi normativ huquqiy hujjatlar, shu jumladan xodimlarning odob-axloq qoidalari; b) korrupsiyaga qarshi kurash tadbirlari haqidagi hisobotlar va ma'lumotlar; d) korrupsiya to'g'risida ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlarning natijalari hamda jamiyat fikrini o'rganib borish; e) so'rov, uslubiy va axborot materiallari; korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni muhokama qilish uchun. 2) Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni yoritish maqsadida "Uzbekistan Anti-Corruption Digest" jurnalida maqolalar chop etilishini tashkillashtirish.	2023-yil har chotrakda	
7.	2023 yil dekabr oyida "Korrupsiya qarshi kurashish haftaligi" ni yuqori saviyada o'tkazish.	1) Barcha bo'g'indagi rahbarlar qo'l ostidagi xodimlari va ularning oila a'zolari o'rtasida "Poraxo'rlik va ta'magirlik – Vataniga, xalqiga, kasbiga va oilasiga xiyonatdir" degan g'oyani ilgari surgan holda, tadbiraviy-profilaktik tadbirlarni amalga oshirish; 2) 9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar o'rtasida animatsion videoroликlar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni Agentlik bilan hamkorlikda munosib taqdirlash.	2023-yil dekabr oyida 2023-yil noyabr- dekabr oylari	Ichki ishlar vazirligi (MMIX, JvaOAVBAB, MvaMTTD) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Monitoring boshqarmasi, barcha xodimlar)
8.	Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish	1) Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish. 2) Ekspertiza natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlash va takliflar ishlab chiqish.	2023-yil 1-yarim yilligi davomida	Ichki ishlar vazirligi (YUTB) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (yuridik xizmati)

bo'yicha takliflar ishlab chiqish.				
------------------------------------	--	--	--	--

O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
boshqarma boshlig'i o'rinbosari


K.B. Daulanov
2023 yil « 11 » yanvar

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi, boshqarma boshlig'i


A.S. Inomov
2023 yil « 11 » yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI BOSHQARMA BOSHIG'I O'RINBOSARI K.B. DAULANOV 2023 y. 11.01 TOSHTENT SHA'RI	RECEIVED 2023. 11. 01 No. 4/219
---	---------------------------------------